

**Farzandlarimizni ham nonga, dehqonning og'ir va sharafl
mehnatiga hurmat ruhida tarbiyalash barchamizning insoniy
burchimizdir.**

Islom KARIMOV

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Tong YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

2008-yil
21-iyul
N:29
(66674)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan



**Mamlakatimiz g'allakorlari 6 million 175 ming
tonnadan ziyod ulkan g'alla xirmoni bunyod
etdilar.
Prezident bobongiz g'allakorlarimizni quchgan
zafarlari bilan qutladilar.
Biz ham siz bolajonlar nomingizdan g'allakor
ota-onalarimizni uygan yuksak xirmonlari bilan
muborakbod etamiz**



7-bet

**Yurtda
qalqon
bo'lmoqlik
sharaf!**


**Bizning quvnoq
bolaligimiz,
Oqib borar daryo
misoli**

Aziz o'quvchilar!

Eng sevimli va eng arzon gazetangizga
yilning ikkinchi yarmi uchun

OBUNA

davom etmoqda. Istalgan aloqa bo'limlarida
qadrdon gazetangizga obuna bo'lishingiz mumkin.



SIRG'ALIDA «YASHIL PATRUL»,
YUNUSOBODDA «BUNYODKOR AVLOD»,

SIZDA-CHI?

Kelgusi yili jonajon poytaxtimiz o'zining 2200 yilligini keng nishonlaydi. Dunyo nigohi Toshkentga qaratiladi. Shu munosabat bilan Yunusobod tumanidagi tengdoshlaringiz bayramga hozirlikni bugundan boshlab yubordilar. Tuman hokimiyati, xalq ta'limi bo'limi hamda o'qituvchi va o'quvchilarning tashabbusi bilan tumanda «Bunyodkor avlod» harakati tashkil etildi. Harakat a'zolarining asosiy vazifalari atrof-muhit tozaligini saqlash, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarida faol ishtirok etishdan iborat.

«Bunyodkor avlod»chilar o'z tumanlarini yigirma oltita mikrohokimiyatlarga bo'lishgan. Bu mikrohokimiyatlarning har birida esa bittadan sport sog'lomlashtirish majmuasi barpo etiladi. Mahalla, o'sha hududdagi uy-joy shirkatlari xodimlari ham bu ishlarda yaqindan yordam bermoqdalar.

Harakat a'zolari o'zlari yashaydigan mahalla ko'chalari, ko'p qavatli uylarning atrofi va yo'laklarni sarishta turishi uchun bor imkoniyatlarni ishga solmoqdalar. Besh-olti kishidan iborat guruh va uning sardori bajarilgan ishlar sarhisobini uztozlarga yetkazib, qilinjak yangi ishlar rejasi bilan fikrlashib turishi bu xayrli ishning yaxshi natijalar berishini ta'minlamoqda.

Tasavvur qiling, bir o'quvchi bir tup mevali yoki manzarali daraxtmi, bir tup gul ko'chatini ekib, uni ildiz otib, yashnab ketishiga erishdi. Yunusobod tumanida esa qirq mingdan ziyod maktab o'quvchisi ta'lim oladi. Bu esa tez orada tuman ko'kalamzor maskanga aylanadi, degani.

Ezgu niyatli «Bunyodkor avlod»chilarga zafarlar tilaymiz.

Yusuf ABDULLAYEV



Yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Prezidentimizning 1997-yilda «O'zbekiston Badiiy akademiasini tashkil etish haqida»gi Farmoni e'lon qilingan edi.

Ana shu Farmon asosida Jizzax shahrida Jizzax tasviriy va amaliy san'at litsey-internati tashkil etildi. Viloyat va tumanlardan kelgan 200 ga yaqin o'quvchilar rangtasvir, naqqoshlik, haykaltaroshlik, tikuvchi-libos dizayneri, zardo'zlik yo'nalishi bo'yicha tahsil olmoqdalar. Litsey-internatda bolalarning o'qishlari, ijod qilishlari uchun barcha imkoniyat mavjud. Bu yerda tez-tez tanlovlar o'tkazilib, unga O'zbekiston xalq rassomlari Javlon Umarbekov, Valeriy Burmakini kabi shu sohaning yetuk mutaxassislari taklif qilinmoqda. Yaqinda litsey-internatga tashrif buyurgan Amerika



elchixonasining vakili janob Richard o'quvchilarning ishlari bilan tanishar ekan, quvonchini yashira olmadi.

– Bolajonlar millati, elatidan qat'iy nazar bizning farzandlarimizdir. Ularni ezgulikka yetaklash, iste'dodlarini tarbiyalash bizning asosiy vazifamiz, – dedi janob Richard. – Bu yerda tahsil olayotgan bolajonlardan kelajakda O'rol Tansiqboyev, Javlon Umarbekov kabi ajoyib musavvirilar yetishib chiqishiga to'liq ishonaman.

Janob Richard o'zining «Amerika tarixi» kitobini litsey-internat o'quvchilariga sovg'a qildi.

Ular ham o'z navbatida o'zlari yasagan naqqoshlik ishlarini hamda qo'g'irchoqlaridan esdalik sovg'alari taqdim etishdi.

Litsey-internatning tashkil etilganiga 10 yil to'lishi munosabati bilan internatda muzey tashkil etildi. Agar siz muzeyga tashrif buyursangiz, bu yerdagi qaynoq hayotga guvoh bo'lasiz, shiddat bilan hayotga intilayotgan shijoatli, bilimli yoshlarga beixtiyor havasingiz keladi.

Karim SHODIQULOV,
Jizzax viloyati

O'ZIMNING
BUVIJONIM

Ismim Dilshod, 5-sinfda o'qiyman. Maktabimni, ustozlarimni juda yaxshi ko'raman. Ona tili va adabiyot fanlariga juda qiziqaman.

Yaqinda ona tili o'qituvchimiz bir kun muhlat berib, mehribon buva-yu buvijonlarimiz haqida insho yozib kelishimni aytdi.

Uyga keldim-u, insho yozishga kirishdim. Negadir miyamga yaxshiroq bir fikr kelavermedi. Shunda onamdan yordam so'radim. Onamning yumushlari juda ko'p ekan. Bir yoqda ukam yig'lab turibdi.

Dadam esa ishdan juda kech qaytadilar, ungacha men uxlab qolgan bo'laman. Nima qilishni bilmay boshim qotib turgandi, eshik qo'ng'irog'i jiringlab qoldi. Yugurib eshikni ochdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, ro'paramda buvijonim jilmayib turibdilar-da. Buvijonim dasturxon atrofida bizni uzundan-uzoq duo qildilar. Ular olib kelgan noz-u-ne'matlar dasturxonni to'ldirib yubordi.



– Ko'p qavatli uyda yashaysizlar, ho'l mevalarni ham bozordan sotib olasizlar. Mevalarni daraxtdan yangi uzib yeganga nima yetsin?! Olinglar, bolajonlarim, yenglar, – deya olib kelgan olma, o'rik, gilos kabi shirindan-shakar mevalarini bizga ilindilar. Kechqurun buvijonim bilan birga yotdik. Ular bizga juda ko'plab ertak va rivoyatlar so'zlab berdilar. O'ylab qarasam, ularning bari bizni yaxshilikka, ezgulikka yetaklar ekan.

Tabiatan juda qiziquvchan bolaman, ota-onamni ham savollarga «ko'mib tashlayman». Lekin ularga har doim ham to'liq javob ololmayman. Sababi, ular doimo band bo'lishadi. Buvijonimdan esa barcha savollaringa javob oldim. «Qari bilganni pari bilmaydi», degan ibora juda to'g'ri ekan.

So'ngra, buvijonim salomlashish odobi, kiyinish, yurish-turish, muomala madaniyati haqida ham ko'p gapirdilar. Odobli, intizomli bolalar haqida gap ketganda: «Bobosi yoki buvisining tarbiyasini olgan-da», deya bejiz aytilmas ekan-da.

Ertalab barvaqt turib insho yozishga kirishdim. Miyamga ajoyib fikrlar o'z-o'zidan yog'ilib kelaverdi. Qo'shib-chatganim yo'q, bo'rttirganim yo'q, buvim qanday bo'lsalar, borini yozdim. Ishonasizmi, mening inshoim hammanikidan ham zo'r yozilibdi. Ustozimiz maqtab-maqtab kattakon «5» qo'yidilar.

Komila DEHQONOVA
yozib oldi

UMID
NIHOLLARIO'QITUVCHIMNING
SAVOLI

Darslar boshlangach, o'qituvchingiz ta'olni kim qanday o'tkazgani haqida so'raydilar-a? Shunda sinfdosh do'stlaringiz turlicha javob beradilar. Siz-chi, bu savolga arzigulik javob tayyorlayapsizmi? Yoki yozda faqat koptok tepib ko'cha changitganingiz-u, har kuni kompyuter o'yinlarini berilib o'ynaganingizni aytib berasizmi? Yaxshisi, vaqtdan unumli foydalanib, siz kompyuterda ishlashni o'rganing. Zero, kelajakda bu ilm ish joyingizda sizga albatta asqotadi.

JAVOBI TAYYOR

Bizning maslahatimizga quloq solgan bir tengdoshingizni bilaman. Bu haqida uning o'zidan eshitib ko'ring-a!

Chilonzor tumanidagi 114-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi Abdulaziz Hasanov:

– Men yozgi ta'tilda kompyuterdan saboq olyapman. Uning imkoniyatlari shunchalik keng ekanki, o'rganib olsak, kelajakda bizdan yaxshi mutaxassis yetishib chiqadi. Shuningdek, men bu yilgi ta'tilda sevimli gazetam «Tong yulduzi» bilan yaqindan tanishib bormoqdaman. Ya'ni, tahririyatga kelib, biz bolalar uchun qanday qilib gazeta chiqarilishini kuzatyapman. Maqolalar yozishni o'rganyapman. Va, albatta gazetaning har sonini ham o'qib boryapman.

Demak, Abdulazizning o'qituvchisiga beradigan javobi tayyor, ta'til kunlari rejali.

ZERIKKANLAR
BO'LMASIN!

Shahrimizdagi barcha muzeylarda bo'lganman, deya olasizmi? Albatta, yo'q. Chunki ularning turi ko'p. Masalan, siz bolalar uchun nihoyatda qiziqarli bo'lgan temiryo'l muzeyi. Demochimizki, ta'tilda muzeylar-u yosh tomoshabinlar teatriga, istirohat bog'lariga olib borishni ota-onangizdan iltimos qiling. Zero, u yerdan olam-olam taassurotlar bilan qaytishingizga shubha yo'q. Ta'tilni mazmunli o'tkazishning siri ham shunda-da! Xullas, aziz o'quvchim, har biringizning ta'tilingiz maroqli o'tsin, bu yilgi ta'tilda zerikkanlar bo'lmasin!

Sayyora JO'RAYEVA

TA'TIL FAQAT DAM OLISH EMAS

So'zlarimiz balki sizga qiziq tuyulayotgandir. Ta'tilda ham dam olishga qo'yishmaydi-da bu kattalar, deysizmi? Biz shunchaki ta'tilingiz mazmunli, unumli o'tishini istab bu mavzuga qo'l urdik. To'g'ri-da, 100 kunlik ta'tildan foydalanib qolish kerak. Orangizda o'qish bilan bir vaqtda turli to'garaklarga qatnashadiganlar bor. Siz esa hech bo'lmaganda ta'til vaqtida bir nima o'rganib qolishingiz zarur. Kitob o'qishni-ku biz aytmasak ham bilsangiz kerak...

KATTA QIZ BO'LIB
QOLDIM

Ha, eng avvalo, ta'tilning uch oyini va har bir kunini rejalashtirib oling. Rejangizdan albatta bir oyda 2-3 ta kitobni o'qib tugatish ham o'rin olsin. Do'stlaringiz bilan o'qigan kitoblaringiz haqida suhbatlashing. Bir hunarni uch oyda o'rganish mumkinligiga ishonasizmi? Tengdoshingiz Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 34-maktabning 4-«G» sinf o'quvchisi Robiyaxon Xayrullayeva ta'tilda to'qishni o'rganishni rejalashtirgan ekan:

– Qo'shni ayol mahallamiz qizlariga to'qishni o'rgatayotganlarini eshitib, ta'til boshlangandan buyon ularnikiga chiqayapman. Bir kunda 2-3 soat shug'ullanamiz. So'ng, boshqa ishlarga, ba'zi darslarni takrorlashga ham, oynayi jahon orqali foydali va qiziqarli biror ko'rsatuv, kinoni tomosha qilishga ham ulguraman. Oyimlar «Endi katta qiz bo'lib qolding», deyidilar nuqul. Shuning uchun «katta qizlar»ning ishlarini ham bajarib, oyimlarga qarashyapman.

– dedim o'zi eshitib qolmasligi uchun quloqlariga shivirlab. Uning bahonasida o'zimga ham konfet tegib qolishini yaxshi bilaman-da.
– O'zing-chi, yemaysanmi? – so'radilar buvim singlimga konfet uzatarkan maqsadimni anglab.
– Mayli, menga ham bera qoling.
Nimagadir og'zim zerikib ketayapti, – dedim sipolik bilan.
Buvim miyig'ida kulib qo'yдилar.

MEHR DARAXTI

Tog'amning Ulug'bek ismli jajji, shiringina o'g'ilchasi bor. Uning tili juda barvaqt chiqdi, yoshiga yetib-yetmay yurib ham ketdi. «Yurganda yurgizadi», deganlaricha bor ekan. Ertalabmi, qoq peshimmi, unga farqi yo'q: «Bu-u, cho'cha» (Buvi, ko'chaga olib chiqing, demoqchi), deya buvimning etagidan tortqilayveradi. Ko'chada bolalar bo'lishsa, yayrab ketadi.

16

oradagi xafagarchilikdan asar ham qolmadi va qo'shnilar iliq xayrlashishdi.
– Baribir nimadir qilgansizlar. Hali buvangiz kelsin, sizlarni bir chaqmasammi, – deya po'pisa qilgan bo'lib uyga kirib ketдилar.

Kechki ovqat paytida, hozir buvim buvamga chaqadilar, degan hadikda o'tirardik. Lekin «bolam, bo'tam» qilishlaridan kunduzgi voqeani tamoman unutgan ko'rinadilar.

Ovqatdan keyin hovlidagi supaga o'rin solib, buvimga yaqinroq joylashib oldik. Chunki buvim kecha boshlagan ertaklarining davomini aytib berishlari lozim edi-da. Bir ertakni ikkiga bo'lib aytishlarining boisi, uyqulari kelib qolsa, eng qiziq joyida uxlab qolaveradilar-da. Hatto bir kuni ularga bag'ishlab she'r ham yozgandim:

Buvijonim chaqqonlar
Topishmog'-u ertakka.
Ammo eng qiziq joydan,
Ulanadi xurrakka...

– Buvi, singlimning konfetyegisi kelyapti,

15

momaqaldiroqdek guldiraydi. Chiqib ovqat yey desam, g'urur qurg'ur yo'l qo'ymaydi. U yonboshimdan bunisiga ag'anab yotgandim, oyim bilan dadamning o'zaro suhbatlari qilog'imga chalinib qoldi:

– Dadasi, Azizjon uchun oromgohga yo'llanma olib kelib zap ish qilibsiz-da. Kun bo'yi bog'dan chiqmaydi. Har xil hasharotlarni tutib, bankaga yiqqani-yiqqan... Shunday qilib, ta'tilning birinchi oyini kamina so'lim oromgohda o'tkazadigan bo'ldim. Oromgohga kelgan kunim, to'g'risi, biroz zerikdim. Do'stim Shuhratni, bog'imizni, hasharotlarimni sog'indim. Keyinchalik bolalar bilan tanishib oldim. Ularga bog'dagi sarguzashtlarimni so'zlab berdim. Erta bilan uyg'onsam, yon-verimdagi bolalar menga qarab nuqul kulishadi. Nima gapligini tushunolmay, oynaga qaradim. Ikki yuzimga tish yuvadigan pasta bilan kapalak rasmimi chizib, peshonamga «mashhur kolleksiyachi» deb yozib qo'yishibdi. «Xap

8

ko'rib, o'zlari ham kulib yubordilar. Meni-ku kulgidan ichaklarim naq uzilib ketayozdi. Shu payt nima bo'ldi deng? Jiyanim sekingina yonimga kelib: «Aziz aka, siz ham turing», deya qo'llarimdan tortqilay boshladi. Turay desam, turgim yo'q. Turmay desam, hozir xolamga chaqadi. Yaxshisi, biroz turib beraqolay, deya halqaning ichiga kirdim. Endi kulish navbati xolavachalarimga kelgandi...



82

olyaptilar. «Maktabdagi ko'ngilsizliklar yetnagandek, dadamning ham jahll qilishlarinichi» achchiqlandim o'zimcha. «Shu qilishganiga kechki ovqatga ham chiqmayman. Baribir o'zlari chaqirishadi».
...Olla a'zolarimiz kechki ovqatga o'tirishdi, lekin hech kim meni eslamadi. Mehrbon buvijonim ham, oyim ham ovqatga chaqirishmadi. Hatto dars tayyorlayotganimda kiraverib bezor qiladigan singilcham ham kirmadi...
O'zim chiqay desam, g'ururim yo'l qo'ymaydi. Chiqmay desam, qornim tatalab keyyapti. Ovqatning hushbo'y hidi dimog'imni qitqilab tinchlik bermayapti.
«Hammalari mendan ranjishdimi, demak, xatolik mendan o'tgandir-da...» Shunday fikr xayolimdan o'tishi bilan ko'nglim yorisib ketdi va mehmonxonaga kirib, ota-onamdan, buvijonimdan kechirim so'radim. «O'qishlar boshlangan kuniyog' ustozlarim, sinfdoshlarimdan kechirim so'rayman. Do'stim Kamoldan esa uzr so'rayman», deya so'z berdim o'zimga.

30

Kimning bankasida hasharot ko'p bo'lsa, o'sha g'olib bo'ladi...
Bir kuni berilib hasharot tutayotgandik. Bir qo'limga oppoq kapalak, ikkinchisida kattakon ninachini ushlab, bankamga joylash uchun Keldim. Ne ko'z bilan ko'rayki, bankalarimiz ag'darilib yotibdi, ichida hech vago yo'q. Azbaroyi jahlim chiqqandan yig'lab yuboray dedim. Ko'z yoshlarimni arang tiyib, atrofga alangladim. Shunda oyim yonimga kelib:
– Azizjon, hasharotlarini men qo'yib yubordim. Ular menga qarab: «Bizga yordam bering, ozodlikka qo'yib yuboring», deya zorlanishdi. Rahmim kelib, bankalarini ochib yubordim. Beozor hasharotlarga azob berish yaxshimas-da, bolam, – dedilar.
– Hecham-da, yolg'on gapirmang, qo'ng'iz-u kapalaklarning tili yo'q. Ular gapirishni bilishmaydi...
Shu kuni kechki ovqatni ham yemay arazlab yotib oldim. Uxlay deyman-u, uxlolmayman. Qornim ochganidan

7

Shu kuni Ilhomning gaysarliklari jonimga tegib, uyma ketishga ahd qilib qo'ydim.
K e l a s i yakshanba oyim keldilar.
– Azizjon, uyma ketamizmi, o'g'lim? – so'radilar mendan.
– Ha, ketamiz, oyi, – dedim o'ylanib ham o'tirmay. – Akrom bilan Bahromni ham olib ketaylik. xolamdan so'rang. Biznikida mazza qilib uxlab, dam olib kelishsin.
Oyim gaplarimdan hayron bo'lib xolamga qaradilar. Xolam va o'g'illari esa sharaqlab kulib yuborishdi.
«Men ham sizlarnikiga ketaman», deya bizga ergashgan Ilhomjondan bazo'r qochib qutuldik.


24



Aziz o'quvchilar, «Tong yulduzi» kutubxonasi yozgita yil kunlaringizda Sizga yana bir ajoyib kitobchani taqdim etyapti. Gazeta tahririyatida uzog' yillardan buyon mehnat qilib kelayotgan ijodkor opangiz, Feruza Jalilovaning mitti hikoyalari jamlangan ushbu kitobcha ham kutubxonangizdan munosib o'rin oladi, degan umiddamiz.

qirg'ish chizig'i

Feruz JALILOVA



(Hikoyalar)

8008 «Tong yulduzi» Toshkent

Kitobni tayyorlaganlar:

Nargiza SIMBAR qizi To'pin HAYIT Zuhra MUXSIMOVA

«Tong yulduzi» kutubxonasi

AZIZJONNING HIKOYASI yoki G'ALATI TUSH


Yangi o'quv yilining dastlabki kunlari edi. 4-sinf o'quvchilari yozgi ta'tilni kim qanday o'tkazgani haqida gurunlashib o'tirishar, Azizjon esa hech kimga gap bermasdi: - Eh, bolalar, ta'til juda mazza-dal! Ertalab barvaqt uyg'onib, naridan-beri nonushta qilish, apil-tapil kiyimib, maktabga yugurishlar yo'q. To'ygunimcha uxlayman. Uyqudan turgach, nonushta bilan tushlikni birga qilib, ko'chaga yuguraman. Do'stim Shuhratjon ham xuddi meni kutib turgandek uyidan otilib chiqadi. Ikkinchi shataloq otib, bog' tomon yuguramiz. Kattakon bog'imiz juda zo'r-dal! Olma, o'rik, shaftolilar g'arq pishgan. Qo'rijimizni to'ldirib, mazza qilib yeymiz. Obdon to'yib olgach, bog' chetidagi kattakon jiyda daraxtiga chiqib, tilla qo'ng'iz tutamiz, asalarilarni gugurt qutisiga qamaymiz. Guldan-gulga ko'chib yurgan chiroyli kapalaklarni, ninachilarni bankaga qamaymiz.

9

DADAMDAN XAFA BO'LDIM

Do'stim Akobir bilan bir devor tayyorlaymiz. Birga o'ynaymiz, dars ta'til kunlari uzzu-kun birgamiz. Akobirlarning hovlisida shoxlari tarvaqaylab ketgan kattakon o'rik daraxti bor. Peshingacha uning soyasida o'ynaymiz. O'rikning tagiga oftob kelganda, biznikiga chiqamiz. O'yinga berilib ketganimizdan gohida tushlik qilish ham

52



9

senlamini» dedim-u, kechqurun uyqu oldidan boshimni choyshabim bilan yaxshilab o'rab oldim. Qani, endiyam chizib ko'rishsin-chi... Allamahalgacha uxloimay, uyimiz bog'imiz do'starim haqida xayol surdim. Kattakon jiyda shoxlarida g'uj-g'uj bo'lib turgan tillaqo'ng'izlarni ko'rib, ko'zim o'ynab ketdi. Ularni olish uchun daraxtga tirmashib chiqqa boshladim. Ne mashaqqatlar bilan tepamda bahaybat bir mahluq turibdi-da. Tikilib qaragam, kattaligi naq sigirdek

deyishdi... Ilhomjon mendan biroz yotirab, uyaliib yurdi. Uchinchi kuni esa: «Nega Aziz akam maktabga bormayaptilar? Men ham bormayman», deya xarxashasini boshlab qolsa bo'ladimi? Nolloj xolavachalarimga sherik bo'ldim... Dam olish kuni hovlidagi asfaltga allanimlarni chizib o'tirgan Ilhom bor ovozda akalarni chaqirib qoldi. Qarasak, katagina halqa chizibdi. Akalaridan shu halqaning ichiga kirib, qo'llarini oldinga cho'zib turishlarini talab qildi. Tabiiyki, ular rozi bo'lishmadi. - O'yi, manavilaringizni garang, haykal bo'lishmayapti, - deya baqira boshladi u oshxona tarafga qarab. - Akrom, Bahrom, shuni ayrganini qilaqolinglar, birpas turib bersangiz, osmon uzilib yerga tushmaydi-ku, - dedilar xolam norozi ohangda. O'g'illarining oftob tig'ida qo'llarini oldinga cho'zganicha tirishib turishlarini

22

tushlik olib chiqqan paytlari haligi kampir nabirasini yetaklab kelib golsa bo'ladimi? Qo'lida bir dasta yirtilgan gazeta parchalari. Vajohatini ko'rib, hozir katta janjal bo'ladi, deb qo'rqib turgandik. Biri olib, biri qo'yib buvimga shikoyat qila ketishdi. Gaplarini eshitib bo'lgach, bizga yuzlandilar: - Ha, nima ish qilib qo'ydinglar, Nadejdaxonning jahli chiyapti-ku?! Ularning rus tilini bilimliklariga bizga juda qo'l keldi-da. Hech narsa qilganimiz yo'q, deb turib oldik. Shunda buvijonim cho'naklaridan bir qisim konfet chiqarib, kampingning nabirasiga uzatdilar. - Spasibo, nexochul! - deya iymanib turardi qizcha. - Xochu, xochu endi, olagol qizim, beshik to'yniki, seni ham shunday kunlarga yetkazsin, - dedilar-da, shirinliklarni qo'lga tutqazib qo'ydi. Keyin buvisiga yuzlandilar: - Nadejdaxonim, yaxshi yuribsizmi, qo'shni? Oyog'ingiz og'rimayaptimi?... Buvimning bir og'iz shirin so'zlari tufayli

14

Lekin hech kim bo'lmasa ham zerikmaydi. Ikkala qo'lini cho'ntagiga solib, boshini egib olgancha ketaveradi. «Ulug'bek, qayoqqa keyapsan?» deb so'rasak, «taptapta» (maktabga demogchi), deb qo'yadi. Bir kuni u qoq peshinda ko'chaga chiqaman, deya xarxasha qilaverdi. - Azizjon, bolam, o'zing biroz aylantirib kelagol, mening ishlarim juda ko'p, - deya ilimos qildilar buvim. Olib chiqdim. Ulug'bek boshini biroz egib turdi-da, nimanidir tutmogchi bo'lgandek oldinga intildi. Keyin esa «to'ta, to'ta bola» (to'xta bola, demogchi), deya yugurgilab ketdi. Atrofta hech zog' ko'rinmaydi. U esa xuddi kimnidir quvlayotgandek yugurishdan to'xtamaydi. Keyin bilsam, jiyanim yugurgani sari undan uzozlashib borayotgan o'z soyasini quvlayotgan ekan... Yugura-yugura holdan toydi shekilli, yerga o'tirib olib bor ovozi bilan yig'lab yubordi. Qochayotgan «bola» aslida bola emas, o'zining soyasi ekanligini qani

17

qirqish chizig'i



tushuntirib ko'ring-chi unga...

Hozir Ulug'bekning ayni «ilon changallaydigan» davri. Mushukmi, kuchukmi, arimi, qo'ng'izmi, farqi yo'q, changallab olaveradi.

Tunov kuni kattagina bir chigirtkani tutib olibdi. Uning changalidan qutulish uchun jon-jahdi bilan siltangan chigirtkani bir oyog'i uzilib, qo'lida qolib ketdi. Bir oyoqlab uzoqqa uchohlmadi chog'i, qayerdandir paydo bo'lib qolgan bir qush uni cho'qib oldi-da, tomga

18

qolishi mumkin bo'lgan sho'xliklarimizni ham ko'tarishadi. Ertadan-kechgacha qo'shni bolalar bilan o'ynab charchamaymiz.

Tushlikka o'z vaqtida kiravermaganimiz uchun buvijonim gohida ovqatimizni ham o'ynayotgan yerimizga keltirib beradilar. Yoz kunlari bo'lishiga qaramay, buvijonim ichiga paxta solinmagan qora duxoba nimcha kiyib yuradilar. Aytishlaricha, orqalariga sal shamol tegsa, bellari og'rib qolarmish. Ana shu nimchalarini juda yaxshi ko'raman-da. Chunki uning katta-katta yon cho'ntaklari doimo qand-qursga to'la bo'ladi. Ayniqsa, charlargami, beshik to'yigami borgan kunlari biz uchun bayram bo'lib ketadi. To'yxonadan olib kelgan shirinliklarini tog'orasi bilan oldimizga qo'yib beradilar...

Bir kuni juda zerikib ketdik. Sho'xlik qilib, buvimga qo'shni turadigan rus kampingning pochta qutusiasidagi gazetalarini yirtib tashladik. Bu ham kamlik qilgandek, muzlatish uchun ariqba solib qo'ygan tarvuzini oqizib yubordik. Tasodifni qarangki, buvim bizga

13

keladigan asalari. Jiydani yo'g'on bir shoxiga o'mashib olibdi. Atrofidagi shoxlarda esa bo'yi menga ikki barobar keladigan, ko'zlari kosadek-kosadek ninachilar, qop-qora bahaybat kapalaklar o'tirib olib, menga g'azab bilan tikilib turishibdi. Azbaroyi qo'rqib ketganimdan, oyoq-qo'llarim bo'shshib, daraxtdan yiqilib ketayozdim. Yerga sakrab tushdim-u, orqa-oldimga qaramay qocha boshladim. Zumdada qop-qora terga botib ketibman. Shu payt kimningdir baquvvat qo'llari meni mahkam ushladi. Ko'zlarimni chirt yumib oldim. Bitrozdan so'ng qo'rqa-pisa ko'zlarimni ochib qarasam, kattakon shisha banka ichida yotibman. Atrofimda esa hasharotlar yig'ilishib, meni qo'lga tushirgan tilla qo'ng'izni olqishlashardi...

Qarasam, ahvol chatoq. Borgan sari nafasim qaytib, terga botib ketyapman. Bunaqada biror kor-hol bo'lishi, oyijonimning mendek shirin o'g'illariidan ayrilib qolishlari hech gapmas. Bor ovozim bilan baqirsam ham

10

uyqumni qizg'anib ochmay ko'zimni yotaverdim. Lekin hammasini sezib yotdim. Xolavachalarim indamaygina o'rinlaridan turib, kiyina boshlashdi. Nonushta ham qilmay papkalarini ko'tarib chiqib ketishdi. «Bog'chaga bormayman», deya xarxasha qilyotgan ilhom ham tinchlanib, bog'chasiga yo'l oldi.

Oradan hech fursat o'tmay, Akrom bilan Bahrom uyga qaytib kelishdi. Kiyimlarini almashirib, o'rinlariga cho'zilishdi. Qani endi uyqu kelsa. Ko'rpamni, yostig'imni tortqilab, meni ham uyg'otib olishdi.

— Bu nima qilganingiz? — so'rayman hayratim oshib.
— Ilhom har kuni, akalarim maktabga borishmayapti-ku, men ham bog'chaga bormayman, deb turib oladi-da. Shuning uchun biz ham ham yoki maktabga borayotgandek bo'lib pana joyda berkinib turamiz-pa, u ketgach, uyga qaytamiz, —

12

Salomat opa beixtiyor ombor tomonga qaradi. Barvaqt turib ne mashagqatlar bilan falon pulga sotib olgan kartoshkalarining o'rmi bo'sh edi...

— Bozorda kartoshka sotdim. Sizlarga biroz yordam qilay dedim-da, — deya qo'shib qo'ydi u xuddi kattalardek salmoqdor ohangda. — Men axir bugunning «tadbirkor» bolasiman-da.

Salomat opa beixtiyor ombor tomonga qaradi. Barvaqt turib ne mashagqatlar bilan falon pulga sotib olgan kartoshkalarining o'rmi bo'sh edi...

— Oyi, oyijon, men ishlab, sizga pul topib keldim, — deya bir siqim tangalarni oyisining qo'lga tutqazdi. — Pul deysanmi, qanaga pul? Ularni qayerdan olding? — ajablandi Salomat opa.

— Sizlarga biroz yordam qilay dedim-da, — deya qo'shib qo'ydi u xuddi kattalardek salmoqdor ohangda. — Men axir bugunning «tadbirkor» bolasiman-da.

5

Salomat opa beixtiyor ombor tomonga qaradi. Barvaqt turib ne mashagqatlar bilan falon pulga sotib olgan kartoshkalarining o'rmi bo'sh edi...

Salomat opa beixtiyor ombor tomonga qaradi. Barvaqt turib ne mashagqatlar bilan falon pulga sotib olgan kartoshkalarining o'rmi bo'sh edi...

Salomat opa beixtiyor ombor tomonga qaradi. Barvaqt turib ne mashagqatlar bilan falon pulga sotib olgan kartoshkalarining o'rmi bo'sh edi...

Salomat opa beixtiyor ombor tomonga qaradi. Barvaqt turib ne mashagqatlar bilan falon pulga sotib olgan kartoshkalarining o'rmi bo'sh edi...

Salomat opa beixtiyor ombor tomonga qaradi. Barvaqt turib ne mashagqatlar bilan falon pulga sotib olgan kartoshkalarining o'rmi bo'sh edi...

26

qo'rsilik qilibman?» deya o'qituvchimizga ham gap qaytargandim. Shu voqeadan buyon dadamning chiroyi ochilmaydi. Avvalgidek «ota o'g'lim» deya ekraslilar u yoqda tursin, salomimga ham bazo'r alik

qo'rsilik qilibman?» deya o'qituvchimizga ham gap qaytargandim. Shu voqeadan buyon dadamning chiroyi ochilmaydi. Avvalgidek «ota o'g'lim» deya ekraslilar u yoqda tursin, salomimga ham bazo'r alik

qo'rsilik qilibman?» deya o'qituvchimizga ham gap qaytargandim. Shu voqeadan buyon dadamning chiroyi ochilmaydi. Avvalgidek «ota o'g'lim» deya ekraslilar u yoqda tursin, salomimga ham bazo'r alik

qo'rsilik qilibman?» deya o'qituvchimizga ham gap qaytargandim. Shu voqeadan buyon dadamning chiroyi ochilmaydi. Avvalgidek «ota o'g'lim» deya ekraslilar u yoqda tursin, salomimga ham bazo'r alik

qo'rsilik qilibman?» deya o'qituvchimizga ham gap qaytargandim. Shu voqeadan buyon dadamning chiroyi ochilmaydi. Avvalgidek «ota o'g'lim» deya ekraslilar u yoqda tursin, salomimga ham bazo'r alik

29



«TADBIRKOR»
BOLA

Salomat opa dam olish kuni bo'lishiga qaramay, barvaqt uyg'ondi. «Salqinda bozorga borib

kelagolay, ko'nglidan o'tkazdi u. — Dadasi ham bugun xizmat safaridan qaytadilar».

Uxlab yotgan o'g'li Azizning yoniga borib: «O'g'lim, men

ketayapman. Qo'ylaringga yem berib, hovlilardan xabaridor bo'lib turgin», deya tayinladi-da, qizchasini uyg'otib yubormaslik uchun ohistagina tashqariga yo'naldi. — Xo'p,

ketayapman. Qo'ylaringga yem berib, hovlilardan xabaridor bo'lib turgin», deya tayinladi-da, qizchasini uyg'otib yubormaslik uchun ohistagina tashqariga yo'naldi. — Xo'p,

ketayapman. Qo'ylaringga yem berib, hovlilardan xabaridor bo'lib turgin», deya tayinladi-da, qizchasini uyg'otib yubormaslik uchun ohistagina tashqariga yo'naldi. — Xo'p,

ketayapman. Qo'ylaringga yem berib, hovlilardan xabaridor bo'lib turgin», deya tayinladi-da, qizchasini uyg'otib yubormaslik uchun ohistagina tashqariga yo'naldi. — Xo'p,

ketayapman. Qo'ylaringga yem berib, hovlilardan xabaridor bo'lib turgin», deya tayinladi-da, qizchasini uyg'otib yubormaslik uchun ohistagina tashqariga yo'naldi. — Xo'p,

ketayapman. Qo'ylaringga yem berib, hovlilardan xabaridor bo'lib turgin», deya tayinladi-da, qizchasini uyg'otib yubormaslik uchun ohistagina tashqariga yo'naldi. — Xo'p,

ketayapman. Qo'ylaringga yem berib, hovlilardan xabaridor bo'lib turgin», deya tayinladi-da, qizchasini uyg'otib yubormaslik uchun ohistagina tashqariga yo'naldi. — Xo'p,

ketayapman. Qo'ylaringga yem berib, hovlilardan xabaridor bo'lib turgin», deya tayinladi-da, qizchasini uyg'otib yubormaslik uchun ohistagina tashqariga yo'naldi. — Xo'p,

ketayapman. Qo'ylaringga yem berib, hovlilardan xabaridor bo'lib turgin», deya tayinladi-da, qizchasini uyg'otib yubormaslik uchun ohistagina tashqariga yo'naldi. — Xo'p,

ketayapman. Qo'ylaringga yem berib, hovlilardan xabaridor bo'lib turgin», deya tayinladi-da, qizchasini uyg'otib yubormaslik uchun ohistagina tashqariga yo'naldi. — Xo'p,

qirg'ish chizig'i



– eng yaqin do'stim
Kamolning ismi bor edi, xolos...
Yig'ilish tugagach, kelishib olganimizdek sinfdoshlarim aylanishga bormoqchi bo'lishgandi. Lekin mening yuragimga qil sig'masdi. Hech kimga qaramay uyg'a otlandim.
– Aziz, do'stim...
– Do'stim-dema meni, endi sendek do'stim yo'q, – deya siltangancha ketib qoldim. Meni to'xtatmoqchi bo'lgan Kamolning gapig'ida qolaverdi.

Yo'l-yo'lakay yilligimda birorta ham «4» bahaim bo'lmas-da, menga «Faxriy yorliq» berishmagani haqida o'ylab borardim. Uyg' kelib o'z xonamga kirdim-da, yechinmay yotib oldim. Oyim mehribonlik bilan: «Senga nima bo'ladi, toychoq'im? Tobing qochib qolmadimi, mabodo? Chiq, yaxshi ko'rgan ovqatimgi pishirib qo'ydim», deya tushlikka

28

xo'p, – bosh silkidi Azizjon ko'zlarini ham ochmay, keyin esa xuddi uyqum uchib ketmasin, degandek boshini yostig'ining tagiga tiqib oldi. «To'yib-to'yib uxlab ol, Aziz, hademay o'qish boshlanib qolsa, bunaqa bemalol uxlashlar qayoqda deysan», deya g'ol'idiradi o'zicha...

Kun allaqachon yorishib ketgan, doirasini qizdirmoqda. Molxonadagi qo'ylarning bir-biriga gal bermay ma'rashlari-yu, issiqdan lohas bo'lgan kuchukning suv so'ragandek g'ingshishi ham Azizni o'rmidan qo'zg'ata olmad.

– Aziz, ho', Aziz, – chaqirib qoldi do'sti Akmal baland ovozd. Ketidan chiyillatib hushtak ham chalib qo'ydi.

«Topgan vaqtini qara-yu, – achchiqlandi Aziz boshqa yonboshiga o'girilib, – chiqmasam, o'zi qaytib ketadi». Akmal ham qaytib ketadigan anoyilardan emas, uxlab yotgan joyiga kirib, ko'rpasini tortqiladi:

– Tursang-chi, dangasa! Sen o'zi uyquga to'yasanmi, yo'qmi?

3

– Ha, nima deysan, biror joyga o't ketibdimi? – to'ng'illadi norozi ohangda Aziz.

– Mana buni o'qigin, – deya qo'lidagi gazetaga ishora qildi Akmal, – biz tengi bolalarning dalalarga chiqib, ota-onalariga ko'maklashishayotgani, hunarmandlarga shogird tushib, o'z'lari mustaqil pul topishayotgani haqida yozishibdi. Biz ham biror ish qilmaymizmi, a?

– To'g'ri aytasan, – Aziz o'rindiqqqa tartibsiz qilib yechib tashlagan kiyimlarini apiltapil kiyarkan, – shunday bir ish qilayki, oyim bilan dadam dangasa o'g'illarining qo'lidan ham ish kelishini bir ko'rib qo'yishsin, – dedi. Bozordan qaytgach, qizalog'i Iroda bilan oshxonada kuymalanayotgan Salomat opa o'g'lining ko'chaga otilib chiqib ketganini sezmay ham qoldi.

Tushlikka ovqat tayyorlab, dasturxon to'ldirdi hamki, Azizdan darak bo'lmadi.

«Hech bo'lmasa, ovqatini o'z vaqtda yemaydi-ya, bolasi tushmagur. Qayoqlarda

4

– Bolalar, yertaga soat 9 da maktabimizda tantanali yig'ilish – «So'nggi qo'ng'iroq» bo'ladi, – deya e'lon qildilar. – Yuqori sinflardagi aka-opalarimizni mustaqil hayotga kuzatamiz. Orangizdagi a'loch, jamoatchi va intuzomli o'quvchilarga «Faxriy yorliq»lar topshirildilar.

Mohira opa negadir «intuzomli» so'ziga alohida urg'u berib, menga ma'noli qarab qo'ydi.

Shu kuni maktabdan xursand kayfiyatda qaytdim. Oq bo'lag-u qora shimimni yuvirdim, dazmollatdim. O'z holimcha tartang kunga «Faxriy yorliq» olishga taraddudlandim. Lekin yig'ilish men kungandek o'tmadi. Taqdirlangan o'quvchilar ro'yatida sinfimizdan faqat birgina o'quvchi

22

MINI O'QUVCHILAR

9

qo'nib, yeya boshladi.
– Bu-u, chigirta (chigirtka demog'chi), – degancha yonimiza yugurib keldi.
– Voy, Ulug'bek, chigirtaning oyog'i endi «vovoy» bo'ladi. Qara, uni «ku-ku» yeb qo'yapti, – dedim yuzimga achinish tusini berib. Shu gapni qayerdan ham ayta qoldim-a? Ulug'bek tomdayi qush tomonga qo'llarini cho'zganicha xarxashasini boshladi. Yuzlarini ko'z yoshlari yuvib tushyapti-yu, qushni haydash bilan ovora: «Ku-ku, chigirtani bey, bey...»
– Ko'rdingmi, bolajonim, rahmdillik, mehr-shafqat tuyg'ulari go'daklarning murg'ak qalbarida idiz o'tgan bo'ladi. Biz kattalar esa bu tuyg'ularni avaylab-asrashimiz, mehr bilan parvarishlab, muruvvat, saxovat, g'amxo'rlik, ezigulik otlig'lazzati mevalar berguvchi azim MEHR daraxtiga aylantirishimiz lozim bo'ladi, – dedilar Ulug'bekning harakatlarini mehr bilan kuzatib turgan buvjonim.

19

Buva va buvjonim shunangangi mehribon, bag'ri keng insonlarki, asti qo'yaverasiz. Singlim ikkimizni quchoq ochib kutib olishadi, bizga atab bir talay shirinliklar ham hozirlab qo'yishadi. Uydada bo'lganimizda dakkini u yoqda tursin, bir-ikki tarsaki ham tushib deya o'pkaladilar oyimdan.



12

qirg'ish chizig'i

hech kim eshitmas yoki eshitsu ham parvo qilmasdi. Ninachilar, kapalaklar atrofini o'rab olib, «uning tili yo'q, gapirishni bilmaydi», deb hiring-hiring kulishardi. Bankada gamalb o'tirishim ham holva ekan, bahavbat qora kapalak ko'zlarini katta-katta ochib, «men hozir uning oyoq va qo'llarini uzib tashlayman, baribir yig'lamaydi-ku», degancha ustimga bosirib kela boshladi. Bankani ehtiyotkorlik bilan ko'tarib, qo'llarimdan mahkam ushladi.
– Voy dod, kim bor? Yordam beringlar, – degancha qichqirib o'rminidan turib ketdim... Xayriyat-ey, tushim ekan. «Tfu-tfu», deya tinchlantirgan bo'ldim o'z zimni. Kechqurun choysab bilan boshimni o'rab olganim uchun dimiqib, terlab ketibman. Sinfda qattiq kulgu ko'tarildi...

11

BIR OG'IZ SHRIN SO'Z

Bir kuni buvjonim qo'ng'iroq qilib:

– Bolalarning ta'til kunlari bo'lsa, bunday nabiralaramni olib kelay ham demaysan-a, –

Bir kuni oyim meni barvaqt uyg'otib:
– Xolangnikga ketyapman, borasanmi? – deb qoldilar. Boshqa maqsadda uyg'otganlarida sira ham turmagan bo'ldim. Hozir esa qanday qilib sakrab turib ketganimni sezmay qolibman. Chunki xolamning men tengi ikki o'g'illari bor-da, mazza qilib o'ynaymiz. Uchinchi o'g'illari Ilhomjon esa ancha kichik, bog'chaga boradi.
Kechga yaqin oyim uyg'a ketdilar, men esa bir necha kunga xolamnikida qoldim. Shu kuni kechasi allamahalgacha kompyuter o'ynab charchab qolibmiz. Ertalab shrin uyquda yotgandik, xonaga Ilhomni yetaklab xolam kirib keldilar.
– Akrom, Bahrom, turinglar, maktabga kech qolasisizlar, – deya uyg'ota boshladilar o'g'illarini.
– Iye, axir ta'til kunlari bo'lsa, maktabda nima bor? – deya xayolimdan o'tkazdim-u,

20

TA'TIL HAM TA'TIL BO'LDI...



Bolalar, agar siz bobolaringizdan shajarangizni so'rab borsangiz, ajdodlarga hurmatingiz oshib boraveradi. Biz azal-azaldan shajarasi buyuk, avlodlari ulug' millatimiz. Dunyoda adolat, hurriyat chiroqlarini yoqqan Sohibqiron Temur bobongizdek sarkarda, hazrat Navoiy, Ibn Sino, Beruniydek ilm cho'qqilarini zabt etgan millatning farzandlarimiz.

Bugun yurtimizda istiqloq epkinlari keng quloch yozib, borliqni ozodlik zavqi bilan to'ldirib turibdi. Millat toj aylagan Cho'lpon,

sonini birinchiliklarda oshirgan sportchi endi 100 metr masofaga yugurish bo'yicha O'zbekiston rekordchisi, shahrimizning Markaziy harbiy sport majmuasida murabbiylik qilayotgan Anvar Ko'chmurodovdan saboq olishni davom ettirmoqda.

Talabchan ustozning harakati bir yilga qolmay natijalarini ko'z-ko'z ayladi. Shu yilning fevral oyidan boshlangan g'alabalar Bahrom akangizga Markaziy Osiyo birinchiligi kabi an'anaviy musobaqalarda 60 metr masofaga yugurishda kumush medalni taqdim etdi. Yirik musobaqaning muvaffaqiyati terma jamoa murabbiylarining e'tiborini tortdi. Uni 2008-yilning mart oyidan boshlab yengil atletika bo'yicha O'zbekiston yoshlar terma jamoasiga, Yangiobod qo'rg'onida tashkil etilgan o'quv-mashg'ulot yig'inlariga jalb etishdi.

Maydon mardonavorlikni yoqtiradi. Terma jamoa a'zosiga aylangan har bir sportchining shiori shunday. Qahramonimiz ham Andijonda bo'lib o'tgan birinchilik musobaqasida shu shiorni oqladi. U 100, 200 metr masofaga va 4x100 estafeta yugurishida marra chizig'iga birinchi bo'lib yetib bordi. G'oliblik uning ko'ksini oltin medal bilan bezadi. Shogird yutug'i terma jamoa murabbiylari Gennadiy Arzumanov va Nikolay Svetkovning qalbini quvonchga to'ldirdi. Murabbiydan shogirdlarining muvaffaqiyati sababini so'rasak, mashg'ulotlarga sidqidildan qatnashib, yutuqlar sirini bilishda, deyishdi.

Qiziq, har bir sportchining o'z tartib-qoidasi bor. Futbolchi mashg'ulotlarda to'p tepib zerikmaganidek, yuguruvchi spordechi mashg'ulotlarda yuguraverib charchamasmikan-a? Ayniqsa, quyosh ufqdan nurlarini olovdek purkab turgan mahal...

- Bahromjon, bizning bolajonlarimizga aytib bering-chi, har kuni necha chaqirim yugurasiz?

- Badantarbiya uchun kunlik yugurish masofamiz 2-3 chaqirimni tashkil etadi. Yugurishdan so'ng, har xil texnik mashqlar bajaramiz. Bolalikdan niyat qilganman. Olimpiada va jahon chempionatlarida qatnashsam. Yurt sharafini munosib himoya qilsam, deb. Shuning uchunmi, qiyinchiliklar bilinmaydi, - deydi jasorati o'ziga yarashib turgan chempion akangiz.

- Yengil atletikachilardan kimlarga havas bilan qaraysiz?

- Murabbiyim Anvar Ko'chmurodovdek rekordchi bo'lishni orzu qilaman. Yana terma jamoamizning yetakchi sportchisi Lyubov Perepelovaning irodasi meni jasoratga chorlab turadi.

Aziz sportsevar bolajonlar! Yurtimizda yengil atletika bo'yicha tinimsiz mashg'ulotlarda toblanayotgan Bahrom akangizga siz ham havas qildingizmi? Yoki Bahrom aka qayerda o'qiydilar ekan, deya qiziqapsizmi? Yosh umidli chempionimiz poytaxtimizdagi 307-maktabning 9-sinfini tugatdi. Uning yutuqlari hammani birdek quvontirmoqda.

TOG'DA KECHGAN MASHG'ULOTLAR

Tabiat mo'jizasi har bir faslda o'z qudratini namoyon etadi. Ayniqsa, yoz butun borlig'i bilan katta-yu kichikni tog'lar bag'riga chorlaydi. Ming yillik qoyalar, karaxt cho'qqilar, purviqor tog'lar va maftunkor bog'lari bilan o'timishni kelajakka bog'laydi. Shundanmi, tog'lar bag'riga oshiqqan har bir insonda kuchli hayajon, ko'nglida hayrat ummoni mavj uradi.

Iyul oyidan boshlangan hordiq Markaziy «Paxtakor» bolalar futbol akademiyasining bo'lajak futbolchilari uchun haqiqiy mardlar maydoniga aylandi. Tog' bag'ridagi maydoniga mashg'ulotlarda chiniqayotgan murabbiy Lenur Yeremeyevning shogirdlari asosan 1998-yilda tug'ilgan bolalardan iborat. Ular hozir Hisor tog'lariga tutashib ketgan Chorbog'ning eng so'lim go'shasida dam olyaptilar. Kun davomidagi ikki mahalgi mashg'ulotlar bo'lajak futbolchilarga qanday ta'sir etyapti ekan? Keling, ularning oromgoh haqidagi fikrlariga bir quloq solaylik-chi.

Valera SARDAROV: - Negadir yig'ladim. Men futbol akademiyasiga ikki yildan beri qatnayman. Mashg'ulotlarga buvim va onam olib boradilar. «Kostruktor» oromgohida bu yil ikkinchi marotaba dam olayapman. Zerikkanim yo'q. Bugun onam va Gogo akam, Rossiyadan kelgan qarindoshlarimiz meni ko'rgani keldilar. Biz oromgoh yaqinidagi dam olish joyiga chiqdik. Miriqib cho'mildik. Ammo kech soat beshlarda meni oromgohda yana qoldirib ketishayotganlarida negadir yig'ladim. Yana bir haftadan so'ng uyya jo'naymiz.

Valixon VALIXONOV - 10 yosh, jamoaning o'ng qanoti hujumchisi: - Dam olish yaxshi. Har kuni mashg'ulot emas, faqat futbol o'yini bo'lganligidan suyunayapmiz. Bizni oromgohda futbolchilar deb chaqirishadi. Kecha uyimizdagilar kelib ketishdi. Menga antiqa «sovg'a» hadya etishdi. Ular bilan uyya qaytgim keldi-yu, ammo murabbiyimiz katta futbolchilikka o'rganinglar, kelasi yildan nasib etsa xorij maydonlariga borib to'p tepganda, nima qilaszlar, degan gaplarga amal qilishga shaylandik.

Sardor SODIQOV, jamoaning darvozaboni: - O'tgan yili 8 kun turib, oyijonim kelganlarida yig'lab ketib qolgandim. O'shanda murabbiyimiz har birimizni maydonning har chizig'ida sinab ko'rgandilar. Meni o'shanda darvozabonlikka tayinlagandilar. Hozirgacha shahar chempionatlarida jamoadoshim Abdulla bilan jamoamiz darvozasini raqib jamoalardan asrashga harakat qilyapmiz. Bu yil yig'lamayapman. Qolaversa, oromgoh mening yana bir iste'dodimni kashf etdi. Bugun oromgoh bolalari o'rtasidagi musobaqada Penaltiyni ushlab qolib, jamoamiz bilan g'alabaga erishdik.

Sahifani Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi

dukkakli mahsulotlardan mosh, loviya, no'xat ham eng zarur vitamindir. Mevalardan to'yib-to'yib yeyish esa ko'z qizarishi kasalligini oldini oladi.

Kompyuter oldida soatlab o'tirish ko'zni juda toliqtiradi. Buning uchun vaqti-vaqti bilan toza havoga sayrga chiqib, ko'm-ko'k maysalarga tikilib o'tirish kerak.

Kitob o'qiganda siz bilan kitobingiz orasi 33 sm. bo'lishi kerak. Oynayi jahonga yaqindan termulib o'tirish ko'rish qobiliyatingizni susaytiradi.

Aziz bolajonlar! Onangiz kabi mehribon, kuyunchak shifokor opangiz sizlarni doimiy kun tartibiga rioya qilishingizni juda xohlayaptilar. Keling, biz sog'lom bolalarmiz, deya ularni ishonitraylik-da, ularning sizlardan xafa bo'lishlariga yo'l qo'ymaylik.

BAHROM - CHOPAG'ON

Abdulla Qodiriy, Usmon Nosirdek bobolaringiz ruhini shod aylab, istiqloq so'zi yangraydi. Shuning uchun ham bu elga bugun faqat shijoat, mardlik va jasorat yarashadi.

Sizga hikoya qilmoqchi bo'lgan qahramonimiz ham yuragida o'ti bor yoshlarimizdan biridir. Bahrom akangiz yengil atletika bo'yicha respublika chempioni. Markaziy Osiyo birinchiligi kumush medal sovrindori. Bolaligidan sportga katta qiziqishi bor bo'lgan Bahrom Xolxo'jayev maktab davridanoq o'zini sportning karate, taekvando turlarida sinab ko'rdi.

Sport olamiga erta mehr qo'rganligi uchun murabbiylar intizomli bola deyish bilan birga, undagi sportga bo'lgan mehr kuchini alohida ta'kidlashardi. Sendagi tezlik ko'proq yengil atletikada o'zingni sinab ko'rishingni ko'rsatib turibdi, deyishardi ustozlari. Murabbiy baribir murabbiy-da. Har bir bolani nimaga qodir ekanligini tezda payqaydi. Demak, mendan karatechi emas, yuguruvchi chiqar ekan-da, degan xayol bilan Bahrom akangiz kunlarni behuda o'tkazmay, poytaxtimizdagi «Dinamo» sport majmuasiga bordi. 14 yoshli bu bolakayni murabbiy Anis Ixсанov mashg'ulotlariga kelishini aytishdi. Shu kunning o'zidayoq murabbiy sportchi bolakayni jismoniy sifatlarini aniqlash uchun uni 60 metrga yugurtirib sinadi. Natija 7,9 sekund. Yomon ko'rsatkich emas.

O'tgan yili chempionimiz Jizzaxda o'tgan Respublika birinchiligida marraga to'rtinchi bo'lib yetib keldi. Yutuqlari



respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiya markazining bolalar bo'limi shifokori Yulduz opangiz so'zlariga diqqat bilan quloq solaylik-chi?

- Bolajonlar, men ham bolaligimda ko'p narsalarga qiziqardim. Otam Murod aka Turonov tibbiyot fanlari nomzodi, onam ko'z kasalliklari bo'yicha shifokor edilar. Besh yoshimdan boshlab oyimga ergashib kasalxonaga borardim. Oq xalat kiygan do'xtirlarga havas qilardim. Bolalik orzusi meni niyatlarimga yetkazdi. Mana, hozir onam kabi shifokorman. Ayniqsa, bolajonlarni yaxshi ko'raman. Hech qaysi bolalar kasal bo'lmasin, deb niyat qilaman. Balki ko'z

Shunaqani?

DO'XTIR OPA XAFA BO'LMASIN

Erta tongdan ishga kelgan Yulduz opa egniga oq xalatini kiyib, palatadagi bolalar yoniga oshiqadi. Do'xtir opasini ko'rgan bolakaylar sevinib ketishadi. Bugun mening ko'zimga ukol qilmaysiz-a, deb so'rashadi. «Qani, ko'zingni bir ko'rib qo'yay-chi», deya ularni erkataladi mehribon do'xtir opasi. Keyin tekshirishni boshlaydi-da, Rustam bilan Javohirning ko'zlariga dori quyamiz, deydi. Akbar va Asadbekka bir-ikki kun yana ukol qilamiz. Ular tuzalib uylariga ketishadi, keyin ko'zlarini, o'zlarini ehtiyot qilishadi, deya jilmayadi. Endi uyya borsak, albatta siz bergan maslahatlarga amal qilamiz, o'rtoqlarimizga ham kasal bo'lsak, do'xtir opa xafa bo'larkan, deymiz. Chunki bizni yig'latib ukol qilish do'xtirlarga ham yoqmasligini bilib oldik, deya chug'urlashadi.

Darvoqe, sizlar ham ko'z kasalliklari bilan og'rimaslik uchun oldindan nimalarga e'tibor berish kerakligini bilgingiz kelayotgandir? Qani, bo'lmasa, poytaxtdagi

kasalliklarining ko'p hollarda kelib chiqishi kun tartibingiz buzilganidan, desak ishonmassiz?! Aslida ham shunday. Salomatlik, avvalo o'ziga e'tibordan boshlanadi. Ko'p bolalar ertalab maktabga nonushta qilmay ketadilar. Peshinda ham tuzukroq ovqatlanmay, turli xil kompyuter o'yinlariga chopadilar. Kechqurun esa vaqtida uxlo olmay, ko'z mushaklarini toliqtiradilar. Uyqu inson hayoti uchun katta ahamiyatga ega ekanligini bilmaydilar. Ovqatlar tarkibida vitaminlar, oqsil va o'simlik yog'i bo'lsa, mevalar tarkibida ko'z kasalliklarini oldini oluvchi xususiyat bor. Masalan, qizil sabzi sharbati vitamin A ga boy bo'lib, ko'z nuri qobiliyatini tiklaydi. Don-



TARALGAY HUR OVOZIM

USTOZ

Siz dunyoda tengi yo'q
Muallimsiz, ustozim.
Qalbingizdan ziyo nur,
Taralgay hur ovozim.

Maktabga kelgan chog'im,
Bor mehringiz berdingiz.
Bizlarga bilim berib,
Yozishni o'rgatdingiz.

Ta'zimdaman har qachon
Talpinaman siz tomon.

SINFDOSH

Esingdami, sinfdosh
Quvnoq edik, sho'x edik.
Bir mayzni qirqtamiz
Qirqqa bo'lib yer edik.

Endi o'sib-ulg'aydik,
Qirqtamiz qirq yoqdamiz.
Shodon bolaligimiz
Qo'msab yashamoqdamiz.



Namangan viloyati, Pop tumanining Uyg'ur qishlog'ida joylashgan 38-o'rta umumta'lim maktabda Malohatxon Umarova rahbarligidagi «Yosh qalam-kashlar» to'garagi tashkil etilgan. To'garak a'zosi Rahmatilla Mamadaliyevning ijodidan namunalari o'qiydiz.


Salomatlik burchagi OZODA BO'LSANGIZ...



Askarida



Ostritsa



Ankilostoma

Oramizda, ayniqsa, maktab yoshidagi bolalar o'rtasida eng ko'p uchraydigan kasalliklardan biri bu gijja, ya'ni enterobioz kasalligidir.

Enterobiozni mayda, dumaloq gijjalar qo'zg'atadi. Ular kichkina ichakning quyi qismi va yog'on ichakda joylashgan bo'lib, 3-4 hafta davomida yashaydi.

Ko'pgina hollarda yuqish jarayoni uzluksiz bo'lgani uchun ushbu xastalik surunkali kechadi. Shu bilan birga, bola o'z kasalligini oila a'zolariga, bog'chaga qatnasa guruhidagi bolalarga, maktabda sinfdoshlariga yuqtiradi.

Nimalarga e'tibor qilish kerak?

Bolalar tirnoqlarini tez-tez olib turish, qo'llarni toza tutish, barmoqlarni og'izga solib so'rish, tirnoq tishlash kabi yomon odatlarga yo'l qo'ymaslik kerak. Ko'chadan o'ynab kelgandan keyin, hojatxonadan so'ng qo'lni sovuqlab yuvish, albatta, xonalarni toza tutish, meva va sabzavotlarni toza suvda yaxshilab yuvib, so'ngra, chayib iste'mol qilish, qisqasi, doimiy ozoda bo'lib yurish asosiy choratadbirlar hisoblanadi.

Siz gazetxonlarga aytilgan bu tadbirlar nafaqat gigiyena, balki boshqa ayrim tur gijjalar va yuqumli kasalliklarni oldini olishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tohir IBRAGIMOV

SOG'INIB YASHAYMAN

Bolalik, men sendan uzoqlashib boryapman, borgan sari sening sog'inchli mehning menga tinchlik bermayapti, oldinda katta hayot maktabi turibdi. Uni o'tashga bel bog'ladim. Ammo bolalikni, oyoqlarim kaftini ilitgan muloyimgina tuproqni, onamning yuzlari kabi iliq oftob nurlaridan bahramand bo'lib yurgan kezlarimni sog'inaveraman.


Bas, shunday ekan, bolalik, men seni

sog'inib yashayman. Sening beg'ubor damlaringni sira yo'qotgim kelmaydi. Lekin har bir narsaning o'z gashti bor. Bahor bir kun o'rmini yozga bo'shatib bergani yanglig', umrning ham hisob-kitobi bor. Bolalikni tark etib, hayot darsini o'tashga oshiqayotgan tengdoshlarimga omad yor bo'lishini tilayman.

Kamoliddin SUYAROV,
Toshkent shahri



BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!



Tuzuvchi:
Murodjon TOIRXONOV

XANDALAR

ISMNING MA'NOSI

– Mening ismim eng chiroyli, degan ma'noni bildirarkan, oyim aytdilar, – dedi besh yoshli Go'zal maqtanib.

– Sening isming nimani bildiradi, Olovuddin?

– Shuni ham bilmaysanmi? – gapni ilib ketdi bilag'onlik qilib Jamol.

– Uning ismi issiqni bildiradi-da.

DARAXT BERDI

Qo'lida o'rik ko'tarib kirib kelgan ikki yoshli Anvar dan onasi so'radi:

– O'riklarni kim berdi, o'g'lim?

– Daraxt berdi, oyi, – deya javob berdi Anvar.



BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU Bosh
muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari)

Manzillimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198,
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

Rassom:
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
ayida
chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 22755
Buyurtma N: J 5640

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lgan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi:
Zuhra
MUXSIMOVA
Navbatchi:
Axtamqul
KARIM